

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQARO YUK TASHUVLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xo‘jayev Fazliddin Elmurodovich

“Biznes boshqaruvi” kafedrası dotsenti, PhD

F.Xujaev@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tovar va mahsulotlar dinamik aylanmasining asosiy tendensiyalari — globallashtirish va integratsiya bo‘lib, ular tufayli chet el mamlakatlari va xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini topish imkoniyati, ya‘ni chegaralarsiz harakatlanish borgan sari soddalashib bormoqda. Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida integratsion guruhlariga birlashgan davlatlarning iqtisodiy o‘rnatilishining jadallashuvi xalqaro aloqalarning intensivlashtirilishiga, savdo hajmi va yuk aylanmasining quvvatini oshirishga turtki bo‘lmoqda, bu esa o‘z navbatida transport tarmoqlarining rivojlanishiga olib keladi. Xalqaro yuk tashuvlarini optimallashtirish mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, savdo hajmi va raqobatbardoshlikning o‘rnatilishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda barcha mamlakatlar o‘z transport tizimlari va transport xizmatlari bozorini integratsiya qilish borasida jadal ish olib bormoqda.

Kalit so‘zlar: mahsulotlar dinamik aylanmasi, transport infratuzilmasi rivojlanishi, yuk aylanmasi, yo‘lovchi aylanmasi, transport integratsiyasi, yuklarni tashish jarayoni, yuqori texnologiyali transport vositalari, mamlakatlarning transport tizimi, xalqaro aloqalar.

Abstract

This article examines the main trends in the dynamic turnover of goods and products under modern economic conditions: globalization and integration. These trends facilitate opportunities to establish a presence in foreign countries and international markets, simplifying borderless movement. The acceleration of economic growth in countries that have joined integration groups to foster economic relations has intensified international connections, increased trade volumes, and enhanced freight turnover, which, in turn, has contributed to the development of transport networks. Optimizing international freight transportation creates a foundation for strengthening economic relations between countries, boosting trade volumes, and enhancing competitiveness. Today, all countries are actively working on integrating their transport systems and transport service markets.

Key words: dynamic turnover of goods, development of transport infrastructure, freight turnover, passenger turnover, transport integration, freight transportation process, high-tech vehicles, transport systems of countries, international relations.

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные тенденции динамического оборота товаров и продукции в современных экономических условиях, такие как глобализация и интеграция. Эти тенденции способствуют расширению возможностей для закрепления позиций на зарубежных рынках и упрощению передвижения без границ. Ускорение экономического роста в странах, вступивших в интеграционные объединения с целью развития экономических связей, приводит к интенсификации международных отношений, увеличению объемов торговли и грузооборота, что, в свою очередь, способствует развитию транспортных сетей. Оптимизация международных грузоперевозок создает основу для развития экономических отношений между странами, увеличения объемов торговли и повышения конкурентоспособности. В настоящее время все страны активно работают над интеграцией своих транспортных систем и рынков транспортных услуг.

Ключевые слова: динамический оборот товаров, развитие транспортной инфраструктуры, грузооборот, пассажирооборот, транспортная интеграция, процесс перевозки грузов, высокотехнологичные транспортные средства, транспортные системы стран, международные связи.

KIRISH

Butun dunyoda iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir vaqtda mamlakatlar o'rtasidagi tovarlar va xizmatlar almashinuvi soddalashib, transport tarmoqlari va savdo hajmlarining o'sishi uchun imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Xalqaro yuk tashuvlari va transport tizimlarining rivojlanishi globallashuv va integratsiyaning bevosita natijasi sifatida qaraladi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar va savdo hajmi o'sishi bilan transport tarmoqlari ham rivojlanadi, bu esa iqtisodiyotning jadal o'sishini ta'minlaydi. Xalqaro yuk tashuvlarining optimallashtirilishi nafaqat savdo hajmini oshirishga, balki mamlakatlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham yordam beradi. Bu, ayniqsa, yangi bozorlarga kirish imkoniyatlari yaratish va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash nuqtayi nazaridan muhimdir. Bu tendensiya iqtisodiy aloqalar va xalqaro bozorlar o'rtasidagi interaktivlikni oshirmoqda. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasida xalqaro yuk tashuvlarini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim tadqiqot yo'nalishidir.

ADABIYOT SHARHI

Logistika fani eng yosh iqtisodiy fan bo'lishiga qaramay, u haqidagi dastlabki qarashlar bir necha asrlar oldin vujudga kelgan. Bugungi kunga kelib logistika sohasi jarayonlarni optimallashtirish, ta'minot zanjirini boshqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda logistika tizimlarini takomillashtirish kabi masalalarni yechimini topishni taqozo qilmoqda. Bu esa o'z navbatida iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislarini logistika yo'nalishida izlanishlarga, ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan uni izchil o'rganishlariga sabab bo'lmoqda.

Logistika sohasidagi eng muhim izlanishlar ta'minot zanjirini boshqarish (Supply Chain Management), logistika jarayonlarini optimizatsiya qilish, transport logistikasi va marshrutlarni optimallashtirish, logistika sohasida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar, ekologik logistika, yashil logistika, logistikada xavflarni boshqarish, avtomatlashtirish va robotlashtirish kabi yo'nalishlarda olib borilmoqda. Umumlashtirgan holda aytadigan bo'lsak, bu sohadagi barcha ilmiy izlanishlar logistikaning eng muhim va dolzarb jihatlarini o'z ichiga olgan.

Xalqaro yuk tashuvlar va jahon transport tizimiga A. Arxipov va S. Maslennikov "Xalqaro yuk tashuvlar" (2023) kitobida umumiy tavsif berganlar. Shuningdek, xalqaro yuk tashuvlarining huquqiy-me'yoriy asoslari, xalqaro yuk tashuvining texnik vositalari, tashkil etilishi, dengiz transporti, xalqaro yuk tashuvlarining transport infratuzilmasi, aloqa yo'llari, portlar va terminallarga oid ma'lumotlarni taqdim etganlar. [1]

Olimlar Tomas Goldsbi, Dipak Ayengar va Rao Sheshanklar (2019) transport jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, o'lchash va optimallashtirish bo'yicha eng nufuzli va keng qamrovli qo'llanmani yaratganlar. Ular eng yirik logistika assotsiatsiyasi va ta'minot zanjirini boshqarish bo'yicha mutaxassislar kengashi bilan birgalikda yuklarni tejamkor tashish jarayoni uchun eng so'nggi tamoyillar, strategiyalar va yechimlarni birlashtirgan. Shuningdek, ular o'z izlanishlarida tashish usullari, tashuvlarning bajarilishi, nazorati, outsorsing, TMS texnologiyasi, dengiz va havo transporti hamda boshqa ko'plab masalalarni ko'rib chiqqanlar. [2]

Rossiya olimlari I. Afanasenko va V. Borisovalar (2019) yuk tashuvlarini raqamlashtirish orqali transport xizmatlarining sifat va samaradorlik darajasini oshirish uchun mavjud bo'lgan axborot xizmatlarini rivojlantirish, yangi integratsiyalashgan raqamli texnologik platformalar yaratish va tatbiq etish hamda tarmoqlarni yangi transport vositalari bilan ta'minlash lozimligini ta'kidlab o'tganlar. [3]

AQShdagi Bouling Grin universiteti professori M.D. Sarder "Logistics Transportation Systems" (2020) kitobida yuk tashuvlarini boshqarishni transport logistikasining eng muhim qismi deb hisoblaydi. U yuk tashuv tarmoqlarini modellashtirish usullari transport tizimlaridan foydalanishni rejalashtirishda qo'llanilib, bu modellarning xarajatlarni hisoblash, narxlarni boshqarish va tovarlarni yetkazib berish jadvalini tuzish borasidagi muammolarni tizimga jamlash uchun foydalanilishini ta'kidlagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosini transport xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish sohasidagi xorijiy va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushuncha va qoidalar tashkil etadi. Muallif, shuningdek, ilmiy jamoalarning transport xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish, transportning barcha turlaridan cheklangan va cheksiz foydalanish sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi muammolarini o'rganish, shakllantirish va foydalanish sohasidagi tadqiqotlar natijalariga tayanadi.

Iqtisodiyotda tovarlarni tashish va iste'mol qilishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish, davlat organlari hisobotlari va statistik ma'lumotlar, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari va hisobotlari tadqiqot uchun muhim manba hisoblanadi.


Tadqiqot jarayonida funksional yo'naltirilgan qidiruv, iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash hamda modellashtirishning turli usullari va vositalaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transport logistikasining belgilovchi elementlari rejalashtirish, boshqarish va nazoratni o'z ichiga oladi. Rejalashtirish dunyo bo'ylab eng qisqa yo'nalishni aniqlash, transport vositasini tanlash va tashish narxini hisoblashni o'z ichiga oladi. Boshqaruv esa logistika zanjirining barcha ishtirokchilari ishini muvofiqlashtirish, shuningdek, yuzaga keladigan muammolar va nizoli vaziyatlarni hal qilishdan iborat. Nazorat esa rejalarning bajarilishini kuzatib borish va zarur bo'lganda harakatlarga tuzatishlar kiritishga qaratilgan.

Shunday qilib, yuk tashish logistikasi murakkab kompozitsiya bo'lib, unda har bir element muhim va o'z rolini o'ynaydi (1-rasm).

Transport logistikasining asosiy maqsadi — tezlik, narx va sifat o'rtasidagi maqbul nisbatni hisobga olgan holda ma'lum turdagi moddiy boyliklarni bir nuqtadan ikkinchisiga yetkazib berishdir. Bunda tashkiliy-boshqaruv jarayonlari zanjiri amalga oshiriladi: transportning optimal turi tanlanadi, tegishli yo'nalish va tashish tezligi aniqlanadi, yukning buzilish xavfi minimallashtiriladi. Shuning uchun ba'zan aniq tovar xususiyatlariga qarab qimmatroq yoki uzoqroq variant tanlanadi.




1-rasm. Logistikaning ilmiy va iqtisodiy asoslari.[4]

Transport logistikasining belgilovchi elementlari rejalashtirish, boshqarish va nazoratni o'z ichiga oladi. Rejalashtirish dunyo bo'ylab eng qisqa yo'nalishni aniqlash, transport vositasini tanlash va tashish narxini hisoblashni o'z ichiga oladi. Boshqaruv esa logistika zanjirining barcha ishtirokchilari ishini muvofiqlashtirish, shuningdek, yuzaga keladigan muammolar va nizoli vaziyatlarni hal qilishdan iborat. Nazorat esa

rejalarning bajarilishini kuzatib borish va zarur bo'lganda harakatlarga tuzatishlar kiritishga qaratilgan.

Shunday qilib, yuk tashish logistikasi murakkab kompozitsiya bo'lib, unda har bir element muhim va o'z rolini o'ynaydi (2-rasm).




2-rasm. Transport logistikasining funksiyalari.[5]

Transport logistikasining belgilovchi elementlari rejalashtirish, boshqarish va nazoratni o'z ichiga oladi. Rejalashtirish dunyo bo'ylab eng qisqa yo'nalishni aniqlash, transport vositasini tanlash va tashish narxini hisoblashni o'z ichiga oladi. Boshqaruv esa logistika zanjirining barcha ishtirokchilari ishini muvofiqlashtirish, shuningdek, yuzaga keladigan muammolar va nizoli vaziyatlarni hal qilishdan iborat. Nazorat esa rejalarning bajarilishini kuzatib borish va zarur bo'lganda harakatlarga tuzatishlar kiritishga qaratilgan.

Shunday qilib, yuk tashish logistikasi murakkab kompozitsiya bo'lib, unda har bir element muhim va o'z rolini o'ynaydi (3-rasm).

Transport tashuvlari logistikasi yuklarni oqilona harakatlantirishga qaratilgan murakkab boshqaruv zanjiridir. Transport tashuvlari logistikasi o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u nafaqat tashish jarayonini, balki bir qator qo'shimcha operatsiyalarni ham o'z ichiga oladi: yukni rejalashtirish va tayyorlashdan tortib uni yetkazib berish va tushirishgacha.



3-rasm. Transport logistikasining vazifalari.[6]

Transport logistikasi tushunchasi, shuningdek, harakatning barcha bosqichlarida yukning holatini nazorat qilishni ham nazarda tutadi.

Transportda tashishni rejalashtirish va optimallashtirish quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- transportning maqbul yoʻnalishi va turini aniqlash;
- tashish jadvalini rejalashtirish;
- tavakkalchiliklarni baholash va minimallashtirish;
- tashish jarayonini nazorat qilish va boshqarish;
- natijalarni baholash va zarur hollarda rejaga tuzatishlar kiritish.

Yuk tashuvlarining ishlashi jarayonlarni rejalashtirish va optimallashtirishga bogʻliq. Transport logistikasini aniq boshqarish xarajatlarni kamaytiradi, yetkazib berish jarayonlarini tezlashtiradi va mijozlarning sodiqlik darajasini oshiradi.

Yuk tashish qanday amalga oshiriladi? Rejalashtirish bosqichida yoʻnalish aniqlanadi, transportning mos turi tanlanadi, yuzaga kelishi mumkin boʻlgan xatarlar hisobga olinadi. Keyin tashishni tashkil etish amalga oshiriladi: hujjatlarni yigʻish, yukni oʻrash va yuklash, tashish paytida uning xavfsizligini nazorat qilish. Oxirgi bosqichda yetkazib berish muddatlariga rioya etilishi va koʻrsatilayotgan xizmatlar sifati ustidan nazorat olib boriladi.

Yuk tashish vazifalariga tovarlarni joʻnatuvchidan oluvchiga yetkazib berishning ishonchli jarayoni kiradi. Transport logistikasi tushunchasi tashishlarni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni oʻz ichiga oladi. Tashish bilan bogʻliq xarajatlarni minimallashtirish ham hisobga olinadi. Bu yoʻnalishlarni

optimallashtirish, mos transport turini tanlash, shuningdek, tashish bilan bog‘liq xavflarni boshqarishni o‘z ichiga oladi (4-rasm).



4-rasm. Yuk tashish jarayonlarining bosqichlari. ¹

Hozirgi vaqtda ta'minot zanjirlarini batafsil o‘rganish va uni ishlab chiqish, qo‘shimcha qiymat yaratish va butun ishlab chiqarish ekotizimini shakllantirish muhim o‘rin egallamoqda. Shuning uchun ta'minot zanjirlarini boshqarish konsepsiyasi bozorda yetakchi o‘rinlarni egallash uchun keng qo‘llanilmoqda.

Umumiy ma'noda ta'minot zanjirlarini boshqarish deganda, mahsulot ishlab chiqarilgan paytdan boshlab yakuniy xaridorgacha bo‘lgan logistika biznes-jarayonlarini joriy etish nazarda tutiladi. Bu jarayon tovarlar, xizmatlar va axborotni taqdim etuvchi barcha kontragentlarni qamrab oladi va iste'molchi uchun qo‘shimcha qiymat yaratadi.

Amaliyotda ta'minot zanjirlarini samarali boshqarish quyidagi konsepsiyalar, usullar va vositalar yordamida amalga oshiriladi:

ECR (Efficient Consumer Response) – Asosiy e'tibor iste'molchiga xizmat ko‘rsatishga qaratiladi, ta'minot zanjirining barcha kontragentlari iste'molchining manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritadi.

VMI (Vendor Managed Inventory) – Mahsulot yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi) sug‘urta zaxirasini o‘z omborida va iste'molchida saqlashga majbur.

CRP (Continuous Replenishment Planning) – Yetkazib beruvchi va savdo vakili o‘rtasidagi tovar aylanmasi doimiy asosda uzluksiz amalga oshirilishi kerak.

FM (Forecasting Methods) – Ushbu usul prognoz modellaridan, trendlar va oraliq prognozlardan foydalanishga qaratilgan.

SV (Select Vendors) – Ta'minotchini tanlashga alohida e'tibor qaratiladi, bunda ishonchlilik, sifat, narx va yetkazib berish muddati kabi mezonlar ko‘rib chiqiladi.

GT (Game Theory) – Sharoitlarda iste'molchi xatti-harakatlarining noaniq talabning mumkin bo‘lgan variantlarini modellashtirish.

MBM (Make or Buy Model) – Xarajatlarni minimallashtirishga e'tibor beriladi, shuning uchun tahlil asosida autsorsga o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan operatsiyalar aniqlanadi.

JIT (Just in Time) – «Aynan o‘z vaqtida» yetkazib berish tamoyilini amalga oshirish uchun barcha xarajatlar boshqa tashkilotlar resurslaridan foydalanish imkoniyati bilan optimallashtiriladi.

ABC-costing – Modelda matritsa hosil qilinadi, unda resurslardan foydalanish darajasi va muhimligiga ko‘ra darajalanadi.

¹ astsolcrm.ru/blog/logistika-transportnyh-perevozok-kak-rabotaet-logistika-gruzoperevozok

CRM (Customer Relationship Management) – Xaridorlar to‘g‘risidagi ma’lumot mavjud bo‘lgan axborot tizimidan foydalaniladi.

QR (Quick Response) – Bu model elektron hujjat aylanishi va monitoring texnologiyalaridan foydalanib, yetkazib berish shartlari va muddatlarida o‘zgarishlarga darhol javob berishni nazarda tutadi.

TQM (Total Quality Management) – Sifatni boshqarish tizimi logistikaning barcha sohalariga singib ketadi va barcha instansiyalarda jarayonlarni unifikatsiyalash va muvofiqlashtirishga olib keladi.

SCOR modellar – Reinjiniyering va biznes-jarayonlar joriy etiladi, moddiy oqimlar barcha kontragentlar va ta’minot zanjiri ishtirokchilari bilan takomillashtirilgan algoritmlar asosida shakllanadi.

IMM (Inventory Management Models) – Model sug‘urta zaxirasi tushunchasini beradi va tizim ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan komponentlarni avtomatik ravishda hisoblaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro yo‘nalishlarda yuk tashuvlarini amalga oshirishda yagona tranzit hujjati sifatida TIR Carnet hisoblanadi. TIR tizimi bo‘yicha tashuvchilar bir nechta davlatlardan o‘tishda faqat bitta hujjat – TIR Carnetdan foydalanadi. Bu yuklarning kelib chiqish joyidan manzilgacha rasmiylashtirilishini soddalashtiradi. Muhrlangan transport vositalari yuklarni tashishda foydalaniladigan transport vositalari yoki konteynerlar bojxona muhrlari bilan yopiladi.

Bu bojxona organlariga yukni qayta tekshirmasdan ishonch bilan tranzit qilish imkonini beradi. Moliyaviy kafolat tizimi har bir yuk tashuvchi bojxona to‘lovlari va soliqlarni qoplash kafolatini ta’minlaydi. TIR tizimi xalqaro darajada kafolatlangan bo‘lib, yuk tashishda ishonchlilikni oshiradi. Cheklangan bojxona tekshiruvlari transport vositasi bir marta muhrlanganidan keyin, tranzit davlatlarida bojxona organlari yuklarni qayta ochish yoki tekshirishga ehtiyoj sezmaydi. Bunday amallar faqat favqulodda holatlarda amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro hamkorlik TIR Konvensiyasiga qo‘shilgan davlatlar bojxona jarayonlarini standartlashtiradi va bir-birining bojxona muhrlari va hujjatlariga ishonch bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Архипов, С., Масленников, С. “Международные перевозки”. Учебник. ИНФРА-М, 2023 г.
2. Голдсби, Томас Дж., Айенгар, Дипак, Рао, Шэшанк. "Грузоперевозки. Руководство для профессионалов". М.: Бомбора, ISBN 9785950076497, 2018 г.
3. Афанасенко, И. Д., Борисова, В. В. "Цифровая логистика". Учебник для вузов. — СПб.: Питер, 2019. — С. 7–8, 29–90.
4. Кристофер, М. "Logistics and Supply Chain Management". Финансовый Таймс, 2016 г.

5. Лавриков, И. Н., Пеньшин, Н. В. "Транспортная логистика: учебное пособие". Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВО «ТГТУ», 2016. – 92 с.
6. Лавриков, И. Н. "Транспортная логистика: учебное пособие". Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВО «ТГТУ», 2016. – 92 с.
7. F. Xo'jaev. "Logistika". Darslik. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022 yil.
8. F. Xo'jaev, I. Muxtorova. "Xalqaro logistika". O'quv qo'llanma. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023-yil.